



SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION JARAYONLARNING EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDAGI AHAMIYATI

Aliyeva Musaffo G'ayrat qizi

Qarshi Muhandislik Iqtisodiyot Instituti

E-mail: aliyevamusaffo@gmail.com.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7303432>

ARTICLE INFO

Received: 27th October 2022

Accepted: 05th November 2022

Online: 08th November 2022

KEY WORDS

Sanoat korxonalari,
innovatsiya, ekonometrik
modellashtirish, nou-xau,
investor, diversifikatsiya,
modernizatsiya, iqtisodiy omil.

ABSTRACT

Ushbu maqolada sanoat korxonalarida innovatsion jarayonlar ekonometrik modellar omillari orqali ko'rib chiqilgan. Murakkab iqtisodiy jarayon sifatida, qaraladigan sanoat korxonalari faoliyatini tahlil qilish ekonometrik modellashtirishda muhim ahamiyat kasb etishi o'rganilgan.

Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va modernizatsiyalash bosqichida sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, iqtisodiyotda innovatsion jarayonlarning darajasini oshirish va rivojlantirish mexanizmlarini ekonometrik modellar asosida takomillashtirish dunyo iqtisodiyoti oldida turgan eng dolzarb muammolaridan biridir.

Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasida " Iqtisodiy erkinlik reytingida mamlakatimizning 26 pog'ona ko'tarilgani islohotlarimizning xalqaro maydondagi e'tirofi sifatida qayd etildi."

Shubhasiz, bu natijaga Yangi O'zbekistonning tarkibiy islohotlarini amalga oshirishdagi izchilligi, shuningdek, samarali sanoat siyosatini yuritayotganligi tufayli erishildi, deb aytish mumkin.

Joriy yilgi davlat dasturida bu boradagi ishlar ko'lamini kengaytirgan holda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish bilan bog'liq barcha yo'nalish va masalalar to'liq qamrab olindi.

Yuqoridagilarni inobatga oladigan bo'lsak, Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotida va ayniqsa , sanoat iqtisodiyotida ham, uning rivojlanishini ta'minlash uchun ta'sir etuvchi omillardan foydalanish lozim, deb hisoblaymiz. Bular quyidagilardan iboratdir:

- Tabiiy resurs va iqtisodiy salohiyatdan (qishloq xo'jaligi , mehnat va b.) samarali foydalanish;
- Qayta ishlashni chuqurlashtirish va yakuniy tayyor mahsulot ishlab chiqarish asosida ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish;
- Xomashyoni chuqur qayta ishlash asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarni oilaviy biznesni rivojlantirishni rag'batlantirish;
- Zamonaviy texnika va texnologiyalar, nou-xau va yangiliklarni keng joriy etish hisobidan mintaqada ishlab chiqarishlarni shakllantirish;



- Investitsiya resurslari, shu jumladan aholi va chet ellik hamkorlar mablag'larini mintaqada ishlab chiqarishni rivojlantirishga jalb etish;
- Kadrlar muammosini hal etish, tarmoqlarning yuqori malakali xodimlar, boshqaruv rahbarlari va barcha texnologik yo'nalishlar bo'yicha asosiy va qo'shimcha ishchilarga bo'lgan talabini qondirish;
- Zamonaviy va istiqbolli mahsulotlarni yaratish va ishlab chiqarish vazifalarini hal etishga qodir yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ularni ishlab chiqarish, konstruktorlik, texnologik va bitiruv oldi amaliyoti paytida jiddiy tayyorgarlik, professional darajada ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishini o'z ichiga olgan oliy ta'limning ko'p bosqichli dasturi asosida o'qitish;
- Brend mahsuloti yaratishni rag'batlantirish, uni viloyat va uning tashqarisidagi iste'mol bozorida taklif etishga ko'maklashish;
- Tarmoq korxonalari o'rtasida kooperatsiya aloqalarini o'rnatish, uzviy bog'langan ishlab chiqarishni qo'shimcha qiymat yaratilishining zanjirsimon bog'liqligi asosida tashkil etish va bu borada axborot almashinuvini yo'lga qo'yish;
- Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish choralari ko'rish, sohalarining taqqoslama ustuvorliklarini ta'minlash maqsadida ichki va tashqi bozorlarni, bozor konyukturasi o'zgarishini muntazam monitoring qilib boorish;
- Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish asosida imitatsion va innovatsion rivojlanish bo'yicha loyihalarni tanlashda texnik va maslahat yordami ko'rsatish, eksportchi korxonalar uchun mumkin bo'lgan barcha imtiyoz va

pereferensiyalarni joriy etish, ularga xorijiy investorlar, sheriklar topishda ko'maklashish;

- Mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilarining global sanoat guruhlari va transmilliy korporatsiyalar bilan amaliy hamkorligini rivojlantirishda Qashqadaryo viloyatiga oid segmentlarni aniqlantirish;

- Ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirishda ilmiy tadqiqot va tajriba – konstruktorlik ishlari rolini kuchaytirish.

Murakkab iqtisodiy jarayon sifatida, qaraladigan sanoat korxonalari faoliyatini tahlil qilish ekonometrik modellashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ekonometrik modellashtirish masalalari o'rganilayotgan sohani anglab yetish bilan cheklanib qolmay, balki, o'rganish jarayonida to'plangan bilimni bozor iqtisodiyoti amaliyotida qo'llash, qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun unga ijobiy ta'sir o'tkazish tajribasini egallashni ham ko'zda tutadi.

$$C=R+M+T+I+K$$

R- tabiiy resurs

M-tayyor mahsulot

T-texnologiyalar, nau-xau

I-investitsiya

K- kadrlar muammosi

Murakkab iqtisodiy jarayon sifatida, qaraladigan sanoat korxonalari faoliyatini tahlil qilish ekonometrik modellashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ekonometrik modellashtirish masalalari o'rganilayotgan sohani anglab yetish bilan cheklanib qolmay, balki, o'rganish jarayonida to'plangan bilimni bozor iqtisodiyoti amaliyotida qo'llash, qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun unga ijobiy ta'sir o'tkazish tajribasini egallashni ham ko'zda tutadi.

$$I=a_2+b_{22} \cdot Y_t+b_{23} \cdot Y_{t-1}+\varepsilon_2$$



Iqtisodiyotda qonuniyatlar iqtisodiy ko'rsatkichning o'zaro aloqasi sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kun-pandemiyadan keyingi vaziyatda ko'plab rivojlangan va jaxon iqtisodiyotiga yetakchi o'rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so'ssiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda,

iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

References:

1. Mirziyoyev SH.M. Konstitusiya - erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. Toshkent, 2018.
2. Rakhimov A. N., Makhmatkulov G. K., Rakhimov A. M. Construction of conometric models of development of services for the population in the region and forecasting them //The American Journal of Applied sciences. – 2021. – T. 3. Berdiyev J. Q. Theoretical fundamentals of enterprise economic power //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 1-6.
4. Ergashev T. K., Berdiev J. Q. THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF USING MODERN MANAGEMENT METHODS IN THE HOTEL INDUSTRY //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – C. 849-859.
5. Rakhimov A. N. Econometric modeling of the development of educational services to the population of kashkadarya region //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – T. 11. – №. 2. – C. 1305-1312.
6. Dustkabilovich R. O., Oktyabrovna R. D. Educational quality in the era of globalization //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – C. 36-39.
7. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi